

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

TAMOYILLARI. In *International Conference on "Current Issues in the Development of Science and Education"* (Vol. 1, No. 1, pp. 89-95).

6. Xurshidaxon, A., & Ikromjonovna, J. S. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI ATROF-MUHITNI ASRAB-AVAYLASH VA G'AMXO 'RLIK KO 'RSATISHGA O 'RGATISH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 551-553.

7. Botirovna, X. S. (2024). TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYALASH JARAYONIDA BO 'LAJAK O 'QITUVCHILARNI SHAXSGA YO 'NALTIRILGAN VA REFLEKSIYA ASOSIDAGI TEXNOLOGIYALAR BILAN TAYYORLASHNING AHAMIYATI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 1(2), 223-227.

8. Xasanovna, R. M. (2025). TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. *ИКРО журнал*, 14(02), 998-1000.

9. Salmanova, M. (2024). SHAXSGA YO'LLANGAN TA'LIM USULLARINI QO'LLANISHDA MUVAFFAQIYATNI BAHOLASH. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 2(3), 37-42.

10. Mirzatillayevna, Y. S. (2024). GOSPITAL TA'LIMDA-“MEHRLI MAKTAB” LAR PEDAGOGIK JARAYONDA TURLI TA'LIM BERISH USULLARIDAN FOYDALANISH. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(34), 327-331.

BEHBUDIY IZDOSHLARI

Raxmatova Saodat Kamiljonovna

Qarshi Davlat Texnika universiteti sirtqi bo'lim

4 - kurs talabasi Telefon: 99888-310-15-87

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyati va uning zamonaviy izdoshlari haqida so'z yuritildi. Behbudiy merosining millat ma'naviyati, ta'lim-tarbiya va vatanparvarlik g'oyalarining shakllanishidagi o'rni tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Behbudiy, jadidchilik, izdoshlik, ma'naviyat, zamondoshlik, yoshlar, ta'lim, o'zlikni anglash.

Kirish. Taraqqiyotning yangi bosqichida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar ma'naviyat va ma'rifat sohasini ham chetlab o'tmadi. Xususan, yoshlar, ularning ma'naviyati, vatanparvarlik tuyg'ulari e'tiborimizni tortishi tabiiy. Ayni yoshlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishda esa jadidchilik harakati ularning beqiyos merosini o'rganish hayotga tatbiq etish katta ahamiyatga egadir.

Har bir millatning o'ziga xos madaniyati, adabiyoti va matbuoti, milliy tarixi, kitoblari, shoir va adiblari bo'ladi. Bir millatning taraqqiyoti, madaniyati qay darajada ekanligini bilmoq uchun uning adabiyoti va matbuotini bir daraja ko'zdan kechirmoq lozim.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

XX boshlarida Turkistonni maorif orqali jahon sivilizatsiyasi darajasiga ko'tarishga harakat qilgan jadidlarimizning zamonaviy ta'limni o'sha davr muammolarining yechimi sifatidagi ko'rsatgan konseptual g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Ayni shu ma'noda taniqli sharqshunos jadidchi olim Mahmudxo'ja Behbudiy asarlaridagi madaniyatlararo muloqot, ta'lim-tarbiya, madaniyat, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikka oid yondashuvni yangi ilmiy mezonlar asosida tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mahmudxo'ja Behbudiy dunyoviy fanlarni isloh qilish bo'yicha konseptual ahamiyatga ega fikrlari orqali xalq ma'rifati va madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yish zarurligini uqtiradi. Bu yo'lda turkiy xalqlarning dunyoviy fan adabiyotlari – “Risolai asbobi savod” (“Savod chiqarish kitobi”, 1904), “Risolai jug'rofiyai umroniy” (“Aholi geografiyasiga kirish”, 1905), “Muntahabi jug'rofiyai umumiy” (“Qisqacha umumiy geografiya”, 1906), “Kitobat ul-atfol” (“Bolalar xati”, 1908), “Amaliyoti islom” (1908), “Tarixi islom” (1909) kabi darsliklarni chop ettiradi.

Ta'lim va tarbiyaga oid “Padarkush” drammasi (1911), “Oq yelpog'ichli chinli xotun”, “Bir a'mo bolaning hasrati” hikoya, “Kitobat al-atfol” kabi asarlar yozadi va o'zining “Nashriyoti Behbudiya” bosmaxonasida nashr ettiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning g'oyalari ahamiyati XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy ta'lim taraqqiyoti rivoji uchun bugungi kunda qimmatli manbaa sifatida tadqiq etilmoqda.

Jadidchilik — ma'rifatparvarlikdan qudratli siyosiy harakatga qadar bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tgan o'ziga xos oqim hisoblangan. Jadidchilarning maqsadi – Turkistonning ko'p millatli tub aholisi, ziyolilari o'lkaniq iqtisodiy, tabiiy va mehnat resurslarini ekspluatatsiya qilinishiga, ijtimoiy va milliy zulmga javoban o'sib borayotgan milliy o'zlikni anglash, mahalliy xalqlar turmush tarzini belgilovchi, umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish va boyitishga intilish kabi prinsipial masalalarni hal etish kerakligini ilgari surdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 -yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yilligini munosib nishonlash haqida ta'kidlab o'tgan edi.

O'tgan asrning boshlarida Turkiston o'lkasining har tomonlama mustaqilligi, aholisining ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy ongini yuksaltirish orqali jadal rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga ko'tarilishini orzu qilgan va o'z hayotini mana shu ishlarga bag'ishlab, xalq va Vatan taraqqiyoti yo'lida shahid bo'lgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy nomi, hayoti va ijodi bugun davlatimiz va xalqimizning yuksak e'tiborida. Yurtimizda shakllangan milliy va diniy qadriyatlarni jamiyat ongiga singdirish orqali ta'lim tizimi, madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan Mahmudxo'ja Behbudiy kabi mutafakkirlarning hayoti va ijodini o'rganish, ilmiy merosini tadqiq etish bugungi yoshlarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning shartlaridan biri va ustuvor vazifadir.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Mutafakkirning xalq ozodligi, Vatan mustaqilligi yo'lida ilgari surgan va tashkil etgan tashabbuslari uni millat ma'rifati va taraqqiyoti uchun tolmas kurashchiga aylantirgan edi.

Tarixda Abdulla Avloniy, Munavvar qori, Abdulla Qodiriy, Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi adiblar, ma'rifatparvarlar aynan Behbudiy boshlab bergan yo'ldan borganlar. Ular ham yoshlarni ilmga, ma'rifatga chorlab sahna asarlari, maktab ochishga, kitoblar chiqarishga, gazeta va jurnallar chiqarish orqali millat uyg'onishini boshlanishiga sababchi bo'ldilar.

M. Behbudiy o'z asarlari, ma'ruzalari, teatr sahnalari va darsliklari minglab yurtdoshlari qalbiga nur olib kelgan, ularning ruhiy, ma'rifiy harakat keyinchalik ulaning izdoshlari tomonidan davom ettirildi.

Behbudiyning izdoshlarini ham tushunish mumkin. Zero, har bir ma'rifatparvar fidoyi o'qituvchi, vatanparvar talabalar uning ezgu ishi va g'oyalarini davom ettirayotgan izdoshlaridir. Behbudiy izdoshlari yangi avlodning bugun biz yoshlar, ustozlar, ziyolilar Behbudiy merosini davomchilari bo'lishimiz kerak.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1 M.Behbudiy “Padarkush” Samarqand.1911 yil.
- 2 M.Behbudiy “Mintaqaviy jug'rofiya” Samarqand 1903 yil
- 3 O.Sharofiddinov “Ijodni yangilash baxt” Toshkent. G'.G'ulom nashriyoti 2004 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh..Mirziyoyevning nutqi va islohot dasturi.
- 5 T.Jalilov “Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti va faoliyati”Toshkent Fan nashriyoti 1998 yil
- 6 Kitobxon kom.k.h. – davron.uz va boshqa electron adabiyotlar

УДК: 618.11-006 -036-07-08

КЛОМИФЕНРЕЗИСТЕНТЛИК ТУХУМДОН ПОЛИКИСТОЗ СИНДРОМЛИ БЕМОРЛАРДА ЛИПИД СПЕКТРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ВА УЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ

Илмий Рахбар: Каримова Н.Н.,

Усмонова М. С.

Бухоро давлат тиббиёт институти Бухоро, Ўзбекистон

Таянч сўзлар: поликистоз синдроми, липид спектри, семизлик, адренотроп гормонлар, қалқонсимон без гормонлари, гонадотроп гормонлар, инсулинрезистентлик.

Резюме: Тадқиқотда тухумдонларнинг рецидивловчи тухумдон поликистози касаллиги ривожланишидаги хавф омилларини, унинг ривожланишида семиришнинг ролини